



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

NEMIS TILI VA ADABIYOTI TA'LIM YO'NALISHI 402- guruh

talabasi MATQOSIMOVA MOHIRANING

KURS ISHI

Ilmiy raxbar: Abdurahmonova R.

Andijon 2014

Mavzu: Sifatlarning otlashishi va gapdagi vazifasi.

REJA:

I. KIRISH

II. ASOSIY QISM

1) olmon tilida sifat kategoriyasi

2) olmon tilida sifatlarning turlanishi

3) olmon tilida sifatlarning otlashishi

4) otlashgan sifatlarning gapdagi o`rni

III. XULOSA

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

Muallimlar tayyolash doimo jamiyatning ustuvor ijtimoiy masalasi bo'lib kelgan. Zero har bir xalqning umumiy saviyasi va tabiyasi, uning intellektual imkoniyati va ma'naviyati muallimlar kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois "Kadrlar tayyorlash milliy dastiri"da oila o'quv yurtlari zimmasiga ulkan masuliyat yuklangan.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari keng quloqchilik yoyayotgan bir paytda chet tillarni o'rgatish va o'rganish o'ta zaruriy ehtiyojga aylandi. Ushbu masalaning muhimligini alohida uqtirib, mamlakatimiz Prezidenti I. A Karimov shunday degan edi. "Xozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishda yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamkorlikda, hamjihatlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning xojati yo'qdir". Demokratik huquqiy davlat qurayotgan ekanmiz, bu jarayon ishtirokchilari davrasida muallim alohida o'rin egallaydi. Sababi yosh avlod uning qo'lida ta'lim oladi, tarbiya ko'radi. O'qituvchi tayyorlash nazariyasida turli konsepsiyalar ko'plab ilmiy mulohazalar yaratildi va ular o'z navbatida oila o'quv yurtlarida til muallimini kasbga tayyorlashning nazariy asoslari sifatida qo'llanilmoqda. Xorijiy til muallimining kasbiy tayyorlashga oid dastur, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar nashr etildi.

Shuningdek, chet tili muallimini kasbiy tayyolash amaliyotida ham bir qancha yutuqlarga erishildi. Chet tili amaliy kursini o'rganish maqsadlarini belgilashda an'anaviy "amaliy, tarbiyaviy, ta'limiy" tushunchalardan tashqari "rivojlantiruvchi", "kasbiy- pedagogik maqsadlar" ham pedagogik muomalaga kiritildi. Chet tili amaliy kursi (o'rganilayotgan chet tilida og'zaki va

yozma nutq, amaliy grammatika, amaliy fonetika) ga oid darslik va o'quv qo'llanmalarda bevosita kasbga yo'naltirilgan mashqlar berila boshlandi.

Chet tili o'qitish metodikasi talabalarning o'quv tarbiya amaliyotida maxsus kurslar, fakultativ mashg'lotlar va darslardan tashqari ishlarga bag'shlangan asarlar e'lon qilindi. Til kafedralari bilan metodika xamkorligidagi chet tilining turli aspektlarini o'rganishni kasbi yo'naltirilgan tizimga solish bo'yicha metodik ko'rsatma va ishlanmalar yaratilib pedagogik jarayonga joriy etildi. Atrofimizga tiyrak nigoh bilan nazar tashlasak, qo'shnilarimiz, xorijdagi aksariyat mamlakatlarning aholisi inqiroz botqog'idan chiqib ketish uchun qiyinchilik bilan kurashayotgan, jahonda o'zining iqtisodiy salohiyati, aholi farovonligi bo'yicha yetakchi o'rinlarda turuvchi Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi inqiroz keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlar va uning natijasidagi siyosiy tangliklar mamlakatimiz rahbarining naqadar oqilona siyosat olib borayotganligini ko'rsatib turibdi.

Ming yillik rivojlanish maqsadlarining ikkinchi yo'nalishi bolalarning boshlang'ich ta'limga to'la jalb etish masalasidir. Hozirda rivojlanayotgan mamlakatlardagi 69 million bolalar umuman maktabga bormaydi. Bu ko'rsatkich jami bolalarning 89 foizini tashkil etadi. Bir qator mamlakatlarda 30 foiz bolalar boshlang'ich maktabni tamomlay olmaydilar. SHuning uchun ham Ming yillik rivojlanish maqsadlarida har bir davlatlardan 8-10 yillik majburiy ta'limni yo'lga qo'yish so'raladi.

Yurtboshimizning Bosh Assambleya yalpi majlisidagi nutqidan, "O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi. Mamlakatimizda noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirildi, 2009 yildan boshlab 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi." Jahondagi nufuzli tashkilotlar butun kuch-g'ayratlarini sarf etib, katta-katta moliyaviy ko'maklar hisobiga 8 yillik boshlang'ich ta'limni joriy etishni orzu

qilayotgan bir paytda O'zbekistonda ming-minglab maktablarda zamonaviy texnologiyalar asosida o'quvchilar saboq olmoqdalar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida 9 yillik majburiy o'rta ta'limdan so'ng akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'rta maxsus ma'lumot olishning imkoniyati yaratildi. Ushbu jarayondan so'ng o'quvchilar iqtidoriga qarab mamlakatimizdagi 60 dan ortiq oliy o'quv yurtlarida oliy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston respublikasida kadrlar tayyorlash dasturlari mazmunidan kelib chiqib, yoshlarning bilim olishga va ularning tarbiyasiga yangicha yondashishdan iborat bo'lgan topshiriq va vazifalarni amalga oshirish mamlakatimiz pedagoglari zimmasida turgan muqaddas ishdir. Biz-bitiruvchilar xam bunga javoban nazariy bilimlarimizni amaliy bilimlarimiz bilan bog'lab, zamon talabiga mos keladigon darajada bo'lishiga xarakat qilmoqdamiz. Men tadqiqqilayotgan „Sifatlarning otlashishi va gapdagi vazifasi“ nomli mavzu xam nazaryaning amaliyot bilan bog'lab olib borilishiga misol bo'ladi. Bu kurs ishini yozishda olmon tili va o'zbek tilida sifat kategoriyasining mavjudligi o'g'risida alohida etibor qaratilgan. Olmon tilida sifat kategoriyasi otlashgan so'zlarda ishlatilishi ko'rib chiqildi. Bu qiyoslanayotgan tillardagi farqlar misollar orqali ko'rsatib o'tildi. Men tadqiq qilayotgan ushbu kursa ishi mavzusi ham nazariy ham amaliy jihatdan o'ziga xos axamiyatga egadir. Masalan nazariy bayonini amaliy misollar bilan mustaxkamlangan.

SIFAT (DAS ADJEKTIV)

Umumiy ma'lumotlar

Otlar asosan dunyodagi narsalarni tilda aks ettirishga xizmat qiladi. Sifatlar esa shu narsalarning belgisini aks ettirish uchun xizmat qiluvchi mustaqii so'z turkumidir. Demak, sifatlar predmetning belgisini, xususiyatini ifodalaydi. Sifat predmetning rangini, tusini, sifati, xususiyatini, holatini, xarakterini, ta'mini,

mazasini, hajmi, psixik holati va boshqalarni ifodalashi mumkin.

Masalan, rot, krank, klug.

Sifat **welcher?**, **welches?**, **welche?** hamda **was für ein?** so'roqlariga javob bo'ladi.

Nemis tilida sifatlar turlanadigan (die flektierte Form) va turlanmaydigan (die unflektierte Form) shakliga ega. Sifatning turlanadigan shakli gapda aniqlovchi bo'lib keladi. Aniqlovchi bo'lib kelgan sifatlar otdan oldin kelib, u bilan son, kelishik va roddda moslashadi: *Das **große** Haus ist neu.*

Sifatning turlanmaydigan shakli esa gapda predikativ bo'lib, ya'ni ot kesimning bir qismi bo'lib keladi. Predikativ (ot kesimning bir qismi) bo'lib kelgan sifatlar esa gapning oxirida keladi va o'zgarmaydi: *Ich bin **glücklich**.*

Ba'zi sifatlar (*sicher; fähig, ansichtig, überdrussig* - Genetiv; *ähnlich, gleich, treu, verdächtig, böse, dankbar, bekannt* - Dativ va boshqalar) predikativ bo'lib kelganda, boshqarish xususiyatiga ega bo'lib, to'ldiruvchining vositali kelishiklaridan birida turishini talab qiladi.

*Ayrim hollarda ular predlogli to'ldiruvchi stolz (auf + Akk), froh (über + Akk), berühmt (durch + Akk), zufrieden (mit + Dat), reich (an + Dat), schuld (an + Dat), einverstanden (mit + Dat) bilan ham keladi: A.Nawoi ist **durch** seine Werke berühmt.*

Sifatlar daraja va turlanishga ega. Nemis tilida sifat ot kabi rod, son va kelishik shakliga ega. Lekin bu grammatik shakl otga tegishli bo'lgan grammatik shakldan farq qiladi. Otlarda har bir ot uchun alohida rod belgilangan, sifatarning rodi esa otning qanday roddda bo'lishiga bog'liqdir. Masalan, *großer Tisch, große Tafel, großes Buch* kabi. Sifatning kelishik va son shakllari ham aniqlanmish otning kelishik va otiga bog'liqdir. Shuning uchun sifatning grammatik shakli otning «absolut» shakliga nisbatan «nisbiy» kategoriya deb yuritiladi.

Nemis tilida sifat boshqa so'z turkumlaridan ham yasalishi mumkin. Sifat yasovchi qo'shimchalarning eng muhimlari quyidagilar:

-ig qo'shimchasi bilan asosan otlardan sifat yasaladi:

die Macht (kuch) - machtig (kuchli) die Sonne (quyosh) - sonnig (quyoshli)

-lich qo'shimchasi bilan ham otlardan sifat yasaladi: *der Mensch (kishi) - menschlich (kishilik) der Freund (do'st) - freundlich (do'stlik)*

-isch qo'shimchasi bilan ot negizlaridan sifatlar yasaladi: *die Stadt (shahar) - städtisch (shahariik)*

-er qo'shimchasi bilan shahar nomlaridan sifat yasali bosh harf bilan yoziladi:
Das Taschkenter Theater- Toshkent teatri Der Karschiener Bahnhof- Qarshi vokzali

-los qo'shimchasi otlarga qo'shilib, o'zbekcha -s/z, be- qo'shimchasiga to'g'ri keladi:

die Arbeit (ish) - arbeitslos (ishsiz) die Hilfe (yordam) - hilflos (yordamsiz)

Yana quyidagi suffikslar sifat yasashda (-bar, -sam, -haft, (-haftig), -en (-ern) qo'llanadi: *wunderbar, silbern, seiden, wahrhaft, langsam, fruchtbar.*

un- prefiksi sifat yasashda sarmahsul hisoblanadi: *untreu, unreif. ur-, mifl-, erz-* prefikslari sifat yasashda kamroq ishlatiladi: *uralt, miHliebig, erzfaul.*

Qo'shma sifatlar miqdori nemis tilida qo'shma otlarga qaraganda kamroqdir. Qo'shma sifatlarning birinchi komponenti esa sifat yoki sifatdoshdan tashkil topadi: *altklug, lebenswichtig, friedliebend* va h.k.

Sifatlarning bo'linishi (Die Einteilung der Adjektive)

Odatda, sifatlar anglatgan ma'nosiga ko'ra ikki turga bo'linadi: asliy sifatlar (qualitative Adjektive) va nisbiy sifatlar (relative Adjektive).

Asliy sifatlar tub so'zlardan iborat, predmetning belgisini bevosita, to'g'ridan to'g'ri ifodalaydi, uni darajalab ko'rsatadi. Asliy sifatlar belgi jihatidan har xil bo'lib, rang-tusni (*gelb, rot, weil*), maza-ta'mni (*su(l, bitter, sauer)*), hajmni (*breit, groß, hoch*), holat, ichki hissiyotni (*blind, stumm, krank*), ijobiy yoki inkor ma'nosini (*gut, schlecht*), tashqi shaklini (*schtank, rund*) ifodalab kelishi mumkin.

Nemis tilida asliy sifatlarning ko'pi to'la paradigmaga ega: ular turlanadi, daraja shakllariga ega, gapda aniqlovchi va predikativ vazifasida qo'llanadi. Ammo nemis tilida sifatlarning qisqa (turlanmaydigan) shaklga ham ega: *Sie sind gesund. Der Himmel ist blau.*

Nisbiy sifatlarning predmetdagi belgini uning boshqa biror predmetga bo'lgan turlicha munosabatiga ko'ra bildiradi. Nisbiy sifatlarning ko'pchiligi, odatda, ot, fe'l va ravishdan yasalgan bo'lib, belgini darajalab ko'rsatmaydi. Nisbiy sifatlarning quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- a) predmetning o'zi yasalgan materiali: *golden, wollen, seiden, silber*;
- b) o'rin yoki payt munosabatlari: *taglichjarlich, heutig, gestrig, dortig*;
- s) turli xil tushunchalar bilan bog'liq xususiyatni: *menschlich, kindlich, sparsam, tragbar, zorning, freudig.*

Nemis tilida nisbiy sifatlarning qisqa shaklga ega bo'lib, belgini darajalab ko'rsatmaydi va ular ravishga ko'cholmaydi. Nisbiy sifatlarning sifat yasovchi turli affikslar va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan bo'ladi. Masalan, *gold-en, holz-ern, nacht-lich, hor-bar.*

Sifatlarning turlanishi (Die Deklination der Adjektive)

Aniqlovchi vazifasida keladigan sifat gapda turlanadi. Sifatning turlanishi otning turlanishidek mustaqil bo'lmay, balki nisbiydir. Sifatlarning uch xil turlanadi: kuchsiz turlanish, kuchli turlanish, aralash turlanish. Sifatlarning turlanishi uning oldidan qo'llanadigan so'zlar (artikl, olmosh, son)ga bog'liq bo'ladi. Chunki sifat moslashgan otning rod, kelishik va sonini ko'rsatadi. Demak, sifatning turlanish turi uning aniqlovchi sifatida qo'llanadigan so'z birikmasi tarkibiga bog'liq. So'z birikmasining tarkibi quyidagicha bo'ladi:

- 1) yetakchi so'z + sifat + ot;
- 2) sifat + ot;

So'z birikmasining asosiy yoki bosh komponenti otdir.

Sifat oldidan aniq artikllar: *der, die, das, die*, olmoshlar: *dieser, sol cher, jener*,

jeder, solche, diese, jene, soiches, dieses, jenes, derselbo, derjenige, alter, mancher, folgender, gleicher, jегleicher, welcher kelsa, sifat kuchsiz turlanadi. Sifat kuchsiz turlanganda birlikda har uchala rod Nominativda va sredniy, jenskiy rod Akkuzativda **-e** qo'shimchasini, qolgan kelishiklarda esa **-en** qo'shimchasini oladi, shuning uchun bu *nomi kuchsiz* turlanish deb ham ataladi. Faqat sifatning kuchsiz turlanishida rod, kelishik va son kuchli turlanishdagidek ochiq ifoda etilmaydi. Sifatnirni kuchsiz turlanishida yetakchi so'z, ya'ni aniq artikl yoki olmoshlar sifat oldida qo'llanadi. Bunda sifat bilan turlangan otning grammatik rodi ochiq ko'rinadi.

Singular

K	Maskulinum	Femininum	Neutrum
N	dieser heiß-e Tag	jene alt-e Frau	solches klein-e Buch
G	dieses heiß-en Tages	jener alt-en Frau	solches klein-en Buches
D	diesem heiß-en Tag	jener alt-en Frau	solchem klein-en Buch
A	diesen heiß-en Tag	jene alt-e Frau	solches klein-e Buch

Kuchsiz turlanganda sifat ko'plikda barcha kelishiklarda **-en** qo'shimchasini oladi

K

N	diese heiß-en Tage	jene alt-en Frauen	solche klein-en Bücher
G	dieser heiß-en Tage	jener alt-en Frauen	solcher klein-en Bücher
D	diesen heiß-en Tagen	jenen alt-en Frauen	solchen klein-en Büchern
A	diese heiß-en Tage	jene alt-en Frauen	solche klein-en Bücher

Sifat ko'plikda *alle beide, samtliche, welche, keine* so'zlaridan keyin kuchsiz turlanadi. Agar sifat oldidan artikl ham, olmosh ham qo'llanmasa, sifat

kuchii turlanadi, bunda sifat aniq artikl qo'shimchasini oladi, faqat *Genetiv* kelishigida sredniy va mujskoy rod -*en* qo'shimchasini oladi, shuning uchun bu *prominal* turlanish deb ham ataladi. Demak, kuchli turlanishda kelishik qo'shimchalari ochiq ko'rsatilib, ular aniq artikl yoki ko'rsatish olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan mos tushadi.

Singular

K	Maskulinum	Femininum	Neutrum
N	heiß-er Tag	alt-e Frau	klein-es Buch
G	heißen Tages	alt-er Frau	klein-en Buches
D	heiß-em Tag	alt-er Frau	klein-em Buch
A	heiß-en Tag	alt-e Frau	klein-es Buch

Plural

K			
N	heiß-e Tage	alt-e Frauen	klein-e Bücher
G	heiß-er Tage	alt-er Frauen	klein-er Bücher
D	heiß-en Tagen	alt-en Frauen	klein-en Büchern
A	heiß-e Tage	alt-e Frauen	klein-e Bücher

Sifat oldidan yetakchi so'z bo'lmay, uning o'rniga turlanmaydigan *etwas, genug, allerlei, vielerlei, lauter, viel, wenig, mehr, mancherlei* kabi so'zlar kelsa, u birlikda kuchli turlanadi.

Sifat ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi *einige, manche, viele, wenige, mehrere,*

etliche, verschiedene so'zlaridan keyin va sifat oldidan sanoq son turgan bo'lsa ham kuchli turlanadi.

Sifatlarning aralash turlanishi (Die gemischte Deklination der Adjektive)

Agar sifat oldidan noaniq artikllar - *ein, eine, ein*, egalik olmoshlari - *mein, dein, sein, ihr, unser, euer, ihr, Ihr* va inkor olmoshi - *kein* kelsa, sifat ham kuchli, ham kuchsiz, ya'ni aralash turlanadi. Bu *paradigma* deb ham yuritiladi. Bunda sifat birlikda har uchala rodda Nominativ va Akkuzativ sredniy hamda jenskiy rodlarda

kuchli turlanish qo'shimchasini, qolgan kelishiklarda esa kuchsiz turlanish qo'shimchasi **-en** ni oladi. Sifat jenskiy rod oti bilan turlanganda barcha kelishiklarda kuchsiz turlanish qo'shimchasini oladi.

Singular

K	Maskulinum	Femininum	Neutrum
N	ein heiß-er Tag	eine alt-e Frau	ein klein-es Buch
G	eines heiß-en Tages	einer alt-en Frau	eines klein-en Buches
D	einem heiß-en Tag	einer alt-en Frau	einem klein-en Buch
A	einen heiß-en Tag	eine alt-e Frau	ein klein-es Buch

Sifat aralash turlanganda ko'plikda barcha kelishiklarda **-en** suffiksini oladi.

Plural

K	
N	meine klein-en Bücher

G meiner klein-en Bücher

D meinen klein-en Büchern

A meine klein-en Bücher

Nemis tilida noaniq artiklning ko'plik shakli bo'lmagani uchun sifat ko'plikda kuchli turlanadi, lekin *keine, meine, deine, seine* kabi yetakchi so'zlardan so'ng kuchsiz turlanadi: *kein guter Bleistift - keine guten Bleistifte*.

Oxiri *-el: edel, dunkel -en: eigen, vollkommen; -er. finster, munter, bitterkabi* qo'shimchalar bilan tugagan sifatlar ot bilan birga qo'llanganda ko'pincha ulardagi *-e* unlisi tushib qoladi: *edler Mensch, finstre Machte, dunkles Glas, aus dunklem Glas*.

Eslatma. Agar ot oldidan bir necha sifat kelgan bo'lsa, ularning hammasi ham bir xil qo'shimcha qabul qiladi, ya'ni bir xil turlanadi.

Nemis tilida shunday sifatlar borki, ular umuman turlanmaydi. Bunday sifatlarga quyidagilar kiradi:

a) shahar nomlaridan **-er** suffiksi yordamida yasalgan sifatlar:

N. der Taschkenter Bahnhof

G. des Taschkenter Bahnhofs

D. dem Taschkenter Bahnhof

Akk. den Taschkenter Bahnhof

b) sondan yasalgan sifatlar:

In den zwanziger (dreißiger, fünfziger) Jahren.

N. die dreißiger Jahre

G. der drei'ßiger Jahre

D. den dreißiger Jahren

Akk. die dreißiger Jahre

c) boshqa tillardan nemis tiliga kirgan sifatlar: rosa, lila, orange, prima, creme

N. das rosa Kleid

G. des rosa Kleides

D. dem rosa Kleid

Akk. das rosa Kleid

d) ganz, halb sifatleri geografik nomlar bilan ishlatiladi:

In ganz Uzbekistan.

Boshqa bir turkumdagi so'zning ot turkumiga o'tishi otlashish deyiladi. Ko'pgina sifatlar, Partitsip I hamda II va boshqalar otlasha oladilar. Otlashgan sifat va partitsiplar artikl bilan qo'llanadi va bosh harf bilan yoziladi. Agar otlashgan sifatlar yoki partitsiplar shaxsni bildirib kelsa, mujskoy rodde yoki jenskiy rodde turadi. *der Alte - die Alte der Kranke - die Kranke der Reiche - die Reiche*

Agar otlashgan sifat yoki partitsiplar abstrakt (mavhum) tushunchani ifodalab kelsa, sredniy rodde qo'llanadi: *das Schone, das Grune, das Rote, das Neue, das Alte.*

Otlashgan sifatlar sifatlarga o'xshab turlanadi: *der Alte - ein Alter, der Fremde - ein Fremder.*

Singular

K. Maskulinum

Femininum

N. der Kranke, ein Kranker

die Kranke, eine Kranke

G. des Kranken, eines Kranken

der Kranken, einer Kranken

D. dem Kranken, einem Kranken

der Kranken, einer Kranken

Akk. den Kranken, einen Kranken

die Kranke, eine Kranke

Plural

K.

N. die Kranken, Kranke

G. der Kranken, Kranker

D. den Kranken, Kranken

Akk. die Kranken, Kranke

Quyidagi otlashgan sifatlarning ilova so'zlar bilan qo'llangan shaklini esda saqlang: *etwas Interessantes, nichts Neues, viel Schones, alles Gute, wenig Gates* va h.

Sifat darajalari (Die Steigerungsstufen der Adjektive)

Nemis tilida sifatlarning uch darajasi bor:

1. Oddiy daraja (der Positiv)
2. Qiyosiy daraja (der Komparativ)
3. Orttirma daraja (der Superlativ)

1. **Oddiy darajada** bir predmetdag i belgi boshqa predmetdagi ayni shu belgiga qiyos qilinmay, to'g'ridan to'g'ri anglatiladi. Oddiy darajadan sifatning qolgan darajalari yasaladi. Oddiy darajada ham bir predmetdagi belgi ikkinchi bir predmetdagi belgi bilan qiyos etilishi mumkin. Bunday chog'ishtirishda har ikkala predmetdagi belgi ham bir xil bo'ladi va gapda **wie, so... wie, ebenso... wie, genauso... wie** kabi bog'lovchilar qo'llanadi.

Dieses Zimmer ist **so** grop **wie** jenes.

Bu xona unisidek katta.

2. **Qiyosiy darajada** ikki predmetdagi belgi bir-biri bilan chog'ishtiriladi, ya'ni bir predmetdagi biror belgining ikkinchisidan biroz ortiq yoki kamligi ko'rsatiladi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga **-er (roq)** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi va gapda **a/s (dan, qaraganda, nisbatan)** so'zi ishlatiladi.

Er ist **fleifiiger** als sein Bruder.

U akasiga qaraganda tirishqoqroq.

3. **Orttirma daraja** predmetdagi biror belgining boshqa barcha predmetlardan ortiqqligini yoki kamligini ko'rsatadi. Bu daraja ikki shakl: o'zgaradigan va o'zgarmaydigan shakllarga ega. O'zgarmaydigan orttirma daraja oddiy darajadagi sifatga **-sten** qo'shimchasini qo'shish va sifat oldidan **am** predlogi qo'yish bilan yasaladi. U har doim otdan keyin keladi, rod va sonda o'zgarmaydi. U gapning oxirida doim kesim bo'lib keladi:

Dieses Bild ist **am schonsten**.

Bu rasm eng chiroylisi.

O'zgaradigan orttirma daraja sifatga **-st** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi, bunday holatda sifat oldidan aniq artikl keladi va ular sifatning kuchsiz turlanishidek turlanadi. Aniqllovchi bo'lib kelgan sifat aniqlanmish otning rodi, kelishigi va soniga qarab tegishli artikl qo'shimchalarini oladi. Demak, u ot bilan rodga, sonda va kelishikda moslashadi:

Dieses Bild ist **das schönste**.

Bu rasm eng chiroylisi.

O'zgaradigan orttirma daraja ko'pincha gapning o'rtasida keladi, shuning uchun u ot bilan rodga, sonda va kelishikda moslashadi:

*Dieser Student ist **derbeste** in unserer Gruppe.*

O'zagida **a, o, u** unlilari bo'lgan sifatlar qiyosiy va orttirma darajada, odatda, umlaut oladi.

oddiy daraja	qiyosiy daraja	orttirma daraja
stark	starker	am starksten
klein	kleiner	am kleinsten
groß	größer	am größten
lang	langer	am langsten

O'zagida **au** diftongi bo'lgan yoki **-el, -er, -en, -bar, -sam, -haft, -iji, -lich, -e** kabi suffikslar bilan tugagan, bir o'zakdan iborat bo'lgan ayrim sifatlar umlaut olmaydi.

oddiy daraja	qiyosiy daraja	orttirma daraja
---------------------	-----------------------	------------------------

laut	lauter	am lautesten
------	--------	--------------

klar	klarer	am klarsten
------	--------	-------------

zart	zarter	am zartesten
------	--------	--------------

mager	magerer	am magersten
-------	---------	--------------

Ayrim sifatlar o'z darajasini umumiy qoidaga bo'ysunmagan holdn yasaydi.

oddiy daraja	qiyosiy daraja
---------------------	-----------------------

gem	lieber
-----	--------

hoch	hoher
------	-------

nah	naher
-----	-------

wenig	minder (weniger)
-------	------------------

Qiyosiy va orttirma darajada qo'llanib, aniqlovchi funksiyasida kelgan sifatlar oddiy darajadagi sifatlardek turlanadi.

Komparativ

Singular

N.	der längere Bleistift	ein längerer Bleistift
----	-----------------------	------------------------

G.	des längeren Bleistiftes	eines längeren Bleistiftes
----	--------------------------	----------------------------

D.	dem längeren Bleistift	einem längeren Bleistift
----	------------------------	--------------------------

Akk.	den längeren Bleistift	einen längeren Bleistift
------	------------------------	--------------------------

Plural

N	die längeren Bleistifte	längere Bleistifte
---	-------------------------	--------------------

G.	der längeren Bleistifte	längerer Bleistifte
----	-------------------------	---------------------

D.	den längeren Bleistiften	längeren Bleistiften
----	--------------------------	----------------------

Akk. die längeren Bleistifte längere Bleistifte

Superlativ

Singular

Plural

N. der längste Bleistift

die längsten Bleistifte

G. des längsten Bleistiftes

der längsten Bleistifte

D. dem längsten Bleistift

den längsten Bleistiften

AKK. den längsten Bleistift

die längsten Bleistifte

ОТЛАЩАН СИФАТЛАР

der Bekannte, ein Bekannter - Maskulina

	Singular	Plural
Nominativ	Bekannte	Bekannte, Bekannten
Genitiv	Bekannten	Bekannten, Bekannter
Dativ	Bekannten, Bekanntem	Bekannten
Akkusativ	Bekannten	Bekannte, Bekannten

Substantiv, Femininum

	Singular	Plural
Nominativ	Bekannte	Bekannte, Bekannten
Genitiv	Bekannten, Bekannter	Bekannten, Bekannter

Dativ	Bekannten, Bekannter	Bekannten
Akkusativ	Bekannte	Bekannte, Bekannten

die Alte - Plural

	Plural
Nominativ	Alte
Genitiv	Alten, Alter
Dativ	Alten
Akkusativ	Alte, Alten

der Alte- Maskulinum

	Singular	Plural
Nominativ	Alte	Alte, Alten
Genitiv	Alten	Alten, Alter
Dativ	Alten, Altem	Alten
Akkusativ	Alten	Alte, Alten

die Alte- Femininum

	Singular	Plural
Nominativ	Alte	Alte, Alten

Genitiv	Alten, Alter	Alten, Alter
Dativ	Alten, Alter	Alten
Akkusativ	Alte	Alte, Alten

das Alte- Neutrum

	Singular	Plural
Nominativ	Alte	Alte, Alten
Genitiv	Alten	Alten, Alter
Dativ	Alten, Altem	Alten
Akkusativ	Alte, Altes	Alte, Alten

der Deutsche, ein Deutscher- Maskulinum

	Singular	Plural
Nominativ	Deutsche	Deutsche, Deutschen
Genitiv	Deutschen	Deutschen, Deutscher
Dativ	Deutschen, Deutschem	Deutschen
Akkusativ	Deutschen	Deutsche, Deutschen

die Deutsche, eine Deutsche - Femininum

	Singular	Plural
Nominativ	Deutsche	Deutsche, Deutschen
Genitiv	Deutschen, Deutscher	Deutschen, Deutscher
Dativ	Deutschen, Deutscher	Deutschen
Akkusativ	Deutsche	Deutsche, Deutschen

das Deutsche- Neutrum

	Singular	Plural
Nominativ	Deutsche	Deutsche, Deutschen
Genitiv	Deutschen	Deutschen, Deutscher
Dativ	Deutschen, Deutschem	Deutschen
Akkusativ	Deutsche, Deutsches	Deutsche, Deutschen

Xulosa

Sifatlar ikki tilda ham o'tlashishi yoki butunlay ot turkumiga ko'chishi mumkin. Nemis tilida o'tlashgan sifatlar doim katta harf bilan yoziladi: *der Alte*— *mo'ysafid (keksa)*, *die Alte* — *kampir*, *der Kranke*— *kasal (odam)*.

Nemis va o'zbek tillaridagi sifatlarniig o'tlashishi bir xil emas. Nemis tilida sifat o'tlashganda grammatik belgilarga ega bo'lsa, o'zbek tilida sifat aksincha grammatik belgisiz o'tlashadi. Bu esa sifatning gapda bajargan sintaktik vazifasida ochiq ko'rinadi:

U kasal. Kasal keldi. Kasal o'quvchi vrachga murojaat qiladi.

Nemis tilida o'tlashgan sifatlar absolyut xarakterga ega bo'lib, otga xos grammatik kategoriyalarga, ya'ni rod, kelishik va songa ega. Sifatlar o'tlashganda otlar kabi aniq artikl bilan qo'llanadi. Bular aniqlovchi otlarga tobe bo'lmaydi va ana shu xususiyati bilan o'tlashmagan sifatlardan farq qiladi, masalan: *das Neue*, *der Alte*, *die Crüne*.

O'tlashgan sifatlar turlanishning turli tiplariga ega: *der Junge* (bola ma'nosida) —kuchsiz turlanadi *der Oberst* (polkovnik ma'nosida) — kuchsiz va kuchli turlanadi.

O'tlashgan sifatlarniig qaysi rodga oidligida ma'lum qonuniyat bor. Sifat yoki belgi nomlari, ya'ni mavhum nomlar ma'nosini anglatadigan sifatlar (o'tlashgan) sredniy rodga oid bo'ladi: *das Gute*, *das Schöne*, *das Nähere*.

Jonli predmetlar nomini ifodalaydigan sifatlar otlarning biologik rodlariga mos keladi: *der*, *die Bekannte*. Bolalar nomini anglatishda qo'llanadigan o'tlashgan sifatlar sredniy rodga ishlatiladi: *das Kleine*, *Kleines*.

Nemis tilida ba'zi sifatlar to'la ravishda otga ko'chib, otlar kabi turlanadi. Masalan: *der Greis* (kuchli turlanish), *der Junge* (kuchsiz turlanish), *das Junge* (kuchli turlanish).

Ba'zi (*das Ganze*, *das Innere*, *das Außere* kabi) sifatlar esa ot gruppasiga ko'chmoqda.

Nemis tilida otlashgan sifatlarning sredniy rodga oidligi maxsus formaga ega bo'lib, kelishik qo'shimchasisiz bir negizdan tashkil topgan bo'ladi. Ular quyidagi holatlarda qo'llanadi:

a) rang nomlarini anglatganda: Das Blau des Himmels, Dieses Grün entsteht aus der Mischung hellen Gelbs und dunklen Blaus.

Bunday otlashgan sifatlarning kuchli turlanishidek turlanadi.

b) tillar ma'nolarini anglatganda, turlanishda bular o'zgarmaydi. *das moderne Deutsch, das Schweizer — Deutsch; ein gutes Französisch.*

v) qo'shma so'zlarda: das Immergrün, das Tausendschön, das Berggrün.

Otlashuvning ko'proq tub sifatlarda yuz berishi har ikkala tilda ham mos keladi: *yaxshi, yomon: das Gute, das Böse.*

O'zbek tilida ham sifatlarning otlashishi mumkin. Bunda sifat o'zining belgilik vazifasini yo'qotib, predmet ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ot (hayvon) tusini anglatuvchi sifatlarning otlashadi: *saman, to'riq, qashka.*

Laqab uchun ishlatiladigan ba'zi sifatlarning ham otlashadi: *chinoq, maymoq, cho'tir.*

Sifatlarning otlashib kishi ismlari bo'lib qo'llanadi: *Yaxshivoy, Oqoy, Go'zal.*

SHuningdek, *boy, kambag'al, kasal, sog', katta, kichik, yosh, qari* kabi belgi xususiyatini bildiruvchi so'zlar ham ot o'rnida qo'llana oladi.

Sifatlarning otlashganda otning butun morfologik belgilarini, ya'ni kelishik, ko'plik, egalik qo'shimchalarini oladi: *Yomondan qorovul qo'ysang, yov yetti bo'lur.*

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) I.A.Karimov „Barkamol avlod orzusi” Toshkent 1998-y
- 2) I.A.Karimov „, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
- 4) S,Saidov, F, Zikrillaev. Nemis tili grammatikasi
- 5) Nemis tili grammatikasi T,3 Mirsoatov. T, 1987
- 6) O’zbek tili grammatikasi O’zbek „Fan nashriyoti“ 1- tom
- 7) Xojiyev,A Grammatika T,1970
- 8) Hozirgi o’zbek adabiy tili 1- qism Marfologiya 1970
- 9) O’zbek va Rus tillar Qiyosiy grammatikasi Azizov O, Mirzaev M, Safayev A.
T 1965
- 10) O.I Maskalskaya Grammatika Maskva 1971
- 11) O,I Maskalskaya Grammatika nemetskaya yazika M 1956